

# BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

**Haydarova Kamola**

*Guliston davlat universiteti o'qituvchi*

**Anontatsiya:** *mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatlari, ona va o'qish savodxonligi darslari orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirish imkoniyati va zaruriyati hususida fikr yuritilgan bo'lib, maqola mazmunida esse yozish orqali ham tanqiy fikrlash elementlari rivojlanishi masalasiga e'tibor qaratilgan*

**Kalit so'zlar:** *o'quvchi, o'qituvchi, fikr, ijodiy, esse, ona tili, o'qish, ta'lim, tarbiya, jamiyat, tizim, maktab, ota-ona*

**Аннотация:** *в данной статье рассматривается возможность и необходимость формирования критического мышления посредством умений мышления учащихся начальных классов, занятий по материнству и читательской грамотности, а содержание статьи ориентировано на развитие элементов критического мышления посредством написания эссе.*

**Ключевые слова:** *ученик, учитель, мысль, творчество, сочинение, родной язык, чтение, образование, воспитание, общество, система, школа, родители.*

**Annotation:** *this article discusses the possibility and necessity of forming critical thinking through primary school students' thinking skills, mother and reading literacy classes, and the content of the article focuses on the development of elements of critical thinking through writing an essay.*

**Keywords:** *student, teacher, thought, creative, essay, native language, reading, education, upbringing, society, system, school, parents*

Hozirgi kunning talabi barkamol va mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida bilim berishni takomillashtirish, o'quvchilar bilan ishlashning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqish va noan'anaviylikka intilishni taqozo etadi. Shunga ko'ra, kichik yoshdagi o'quvchilarni fikrlash, izlanish va aniq maq sad sari intilib ongli ravishda bilim olish va dunyoqarashini kengaytirish uchun ta'lim-tarbiya berishda metodlarning xilma-xil bo'lishini talab etadi. Ana shunday yangi texnologiyalardan biri o'quvchilarda tanqidiy fikrlash malakasini shakllantirishdir.



O'quvchilarning o'quv jarayoniga nisbatan qiziqishlarini orttirish, ularning mustaqilligi va faolligini ta'minlash, tanqidiy tafakkurini shakllantirishga qaratilgan o'quv-biluv jarayonini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda o'quvchilarning bilimdonligiga erishish, ularning erkin mushohada yuritishlariga ko'maklashish ehtiyoji avvalambor o'qituvchilar tomonidan qondirilishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash orqali, mustaqil, erkin fikrlay olish, tahlil qilish, taqqoslash, fikrlarni izohlash, baxslashish, o'z g'oyalarini himo ya qilish va yangiliklarga intilish kabi malakalari bilan birga, mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, dunyoqarashi, o'z-o'zini anglash, kommunikativ savodxon ligi, go'zallik va nafosatni his etib, undan zavqlana olish, aqlan va jismonan sog'lom bo'lish, milliy urf-odatlarni o'ziga singdirish va qadrlash kabi muhim xususiyatlari rivojlantiriladi. Bu o'z navbatida kichik yoshdagi o'quvchilarning bilimlarni chuqur o'zlashtirish va amalda to'g'ri qo'llay olishlarini ta'minlaydi. Shunga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarini tanqidiy fikrlashlarini rivojlan tirish uchun darsning maqsadini aniq, pedagogik texnologiya asosida loyihalab olish muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining reflektiv mushohada yuritish tayyorlashning ilmiy-pedagogik va amaliy texnologik jihatlari M.Abdullayeva, A.Nurmanov va boshqalar, aqliy tarbiya muammolari va ularni darslarida amalga oshirish muammolari B.Mirzahmedov, N.Mamadiyorov, A.Abduvahobovlar tomonidan tadqiq etilgan. Shu bilan birga ilmiy manbalar tahlili umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish masalasi bozor iqtisodiyoti sharoitida to'laqonli o'rganilmagan.

J.Hasanboyev, X.Sariboyev, G.Niyozov, O.Hasanboyeva, M.Usmonboyevaning ta'kidlashlaricha, kichik maktab yoshidan o'tgan bolalar (o'smirlik davri 11-12-yosh)da ham o'qish muhim o'rin tutadi, ammo talablarning oshishi ayrim holatlarda fanlarni o'zlashtirishda "pastlashish" holatini keltirib chiqaradi.

Demak, o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda pedagogik-psixologik uzviylik va uzluksizlikni inobatga olish boshlang'ich sinf o'qituvchilarining doimiy diqqat markazida turgan vazifa bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonining muayyan jihatlari quyidagi asoslarga tayanadi:

- o'qish jarayoni tezligini muvofiqlashtirish;
- o'quvchining o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirib borish;
- ilgari egallangan bilimlarni ham inobatga olish;
- o'quvchi tashabbusi va majburiyatini qo'llab-quvvatlash;
- amaliyot orqali o'rganish;



- ikki tomonlama fikr-mulohazalar almashinuvini tashkil qilish;
- o'qish jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish;
- o'quv jarayonini baholash;
- O'quvchilarning amaliy, ijodiy, mustaqil ishlari, imkon qadar individual bo'lishi uchun sharoit yaratish talab etiladi.

Bunda ish turlarini muntazam o'zgartirib turishga qulay vaziyat vujudga keltiriladi. O'quvchi faoliyatining har xil turlarini uyg'unlashtirish zaruriyati hamda barcha faoliyat turlarining muvofiqlashtirilishi ularda rang-barang tipdagi talablarning hosil bo'lishi uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi. Shu bilan birga o'z-o'ziga talabchanlik va mas'uliyat hissini tarbiyalaydi.

Yozma ish turlaridan biri bo'lmish esse yozish orqali o'quvchilarning shaxsiy munosabatlarini bildirish, tanqidiy fikrlash salohiyatini yanada yuksaltirish, butun jahon miqyosida tan olingan xalqaro sertifikatlarni qo'lga kiritishga ko'maklashadigan o'quvchilarni tayyorlash. Darhaqiqat, bizning boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili va o'qish savodxonligi darsligidagi o'qitish tizimida matn tuzish, diktant, bayon va insho yozish kabi nazorat ishlari bugungi kungacha o'tkazilib kelinardi. Zamon bilan hamhafas yashash orqali, ta'lim tizimi sohasida, fan va texnikaning rivojlanib borishi doirasida jahonning ilg'o'r tajribalarini bizning tizimga joriy etish, shu bilan bir qatorda sifatli ta'lim jarayonlaridan andaza (shablon) olish va yuksak natijalarga erishish hayotiy zaruriyatga aylandi. Shu sababli ta'lim tizimimizga kirib kelgan yozma nutqning yangi bir ko'rinishi esse yozishdek ijodiy ish ham butun jahon ta'lim tizimida ijodiy ish turi sifatida bizning ta'limga kirib keldi. Bugungi kunda bu ijodiy ishdan samarali foydalanish maqsadida yangi ishlab chiqilgan darsliklardan keng o'rin oldi.

Yangi ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarining aksariyat mavzulari o'quvchining esse yozish ko'nikmasini hosil qilish va rivojlantirishga qaratilgan. Nima sababdan esse yozishni boshlang'ich sinf o'quvchilarining maktab darsliklariga kiritilganiga e'tibor berib qarajak, esseda o'quvchi o'z dunyo qarashidan kelib chiqqan holda va shaxsiy fikr – mulohazasini, munosabatini yozma nutqda yoritib berishlariga imkon yaratib beradi.

Esse yozish qonun-qoidalarini boshlang'ich sinflardan o'quvchilarga tushuntirib borilsa, o'rgatilsa, ko'nikma va malaka hosil qilinsa, esse yozish har bir o'quvchining qo'lidan kela olishi mumkin. Ushbu yozma ish turning yana bir afzal tomonlaridan biri, o'quvchilarni hayotiy tajribalari asosida o'z fikrini bayon qilish va ko'chirmakshlik kabi xunuk odatlar yuzaga kelmasligini ham oldini oladi.

Demak, shuning uchun o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikr – mulohaza, shaxsiy munosabatini ifodalay olishlari uchun ham esse yoza olish salohiyatlarini



takomiliga yetakaza olish biz ustozlarning zimmamizdagi vazifalardan hisoblanadi. Bu esa yoshlarning ona tilimizdan Milliy va xorijiy tillardan ham kerakli Xalqaro TOEFL, IELTS, CEFR, SAT general, SAT subject sertifikatlarni qo`lga kiritishlarida ham o`z natijasini ko`rsatishi kerak.

Bolalarda tanqidiy fikrlash ko`nikmalarini shakllantirish uchun o`qituvchi o`quvchilarning fanlar bo`yicha individual xususiyatlarining raqamli ko`rsatkichlarini aniq tasavvur etgan taqdirdagina ushbu pedagogik jarayonni obyektiv tafsirlash imkoniyatiga ega bo`ladi.

Fikrimizcha, boshlang`ich sinf o`quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muammoli ta`lim usullaridan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular ongiga yangiliklarni singdirish orqali tanqidiy fikrlash ko`nikmalarini tarkib toptirish real pedagogik vaziyatlarni vujudga keltirishni

talab qiladi. Bu jarayon turli ta`lim-tarbiya konsepsiyalari, nazariyalari yordamida loyihalashtirilib, ta`lim tizimi muassasalariga tatbiq etiladi. O`quvchilarda tanqidiy fikrlashlarini shakllantirishda ularning obyektiv va hissiy bilish imkoniyatlarini

rivojlantirish lozim. Buning uchun didaktik topshiriqlar majmui, maxsus metodikalar, o`quvchilarga pedagogik ta`sir ko`rsatish mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Yuqoridagi ta`kidlardan quyidagilarni **xulosa** qilish mumkin:

1. O`quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish bo`yicha maxsus tizimli ishlarga ehtiyoj mavjud.

2. Tanqidiy fikrlash – o`quv auditoriyasidagi ruhiyatni o`zgartira oladigan strategiyalar majmuidir, ya`ni mashg`ulot o`qituvchi va talabalarning ijodxonasiga aylanadi. Bunday jarayonda o`quvchilar izlanishlar, o`rganishlar natijasida manbalardan unumli foydalanish orqali mustaqil fikrlash va mustaqil tafakkur yuritishni o`zlashtira oladilar.

3. Boshlang`ich sinf o`quvchilarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish,

o`quvchilar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g`oyalarni bag`rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o`quv jarayonidagi faolligini ta`minlash, har bir talabada uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag`batlantirish, pedagogik ta`sir ko`rsatish mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: “O‘qituvchi”, 1996.
2. Hasanova A. O‘quvchi yoshlar tarbiyasida rag‘batlantirish va tanbeh mezoni. – T.: “O‘zbekiston”, 1996.
3. Xodjayeva F.O. O‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish va uning muhim jihatlari. /”Zamonaviy ta’lim” ilmiy-amaliy ommabop jurnali, 2017-yil, № 6, 43-47 b.
4. Turanova Iroda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini pirls xalqaro baholash dasturiga tayyorlashda innovatsion texnologiyalarning o‘rni. Zamonaviy ilm-fan va ta’lim istiqbollari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10658697>
5. Nasriddinova N. A. Methods for the development of reading literacy of primary school students through independent thinking. J / International Journal of Health Sciences. – Hindiston, 2022. –1690-1695-betlar.  
<https://doi.org/10.53730/ijhs.v6nS5.8968>
6. Abduraxmonova N.N. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish muammosining pedagogik zaruriyati // Science and innovation international scientific journal volume 1 Issue 8 UIF-2022: 8.2\ISSN:2181-3337.2114-2121 betlar.  
<http://scientists.uz/view.php?id=3348http://scientists.uz/uploads/202208/B-432.pdf>
7. Abdurakhmanova N.N. Structural and substantive features of improving the methodological preparation of future elementary school teachers for the intellectual development of students // The field of scientific research International scientific-online conference Part 4 November 30<sup>th</sup> Colletions of scientific works Warsaw 2022. / 115-121 betlar.  
<https://interonconf.org/index.php/pol/article/download/646/607/595>
8. Abdurakhmanova N.N. The practical situation of improving the methodical preparation of future elementary school teachers for the intellectual development of students // France international scientific-online conference: “Scientific approach to the modern education system” Part 10, 5th December. / 174-177 betlar.  
<https://interonconf.org/index.php/fra/article/view/647>

